

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK:336:658.5:005.591.6(575.1)

SHAYAKUBOV SHAXZOD SHAKABILOVICH

**KORXONALARNING INNOVATSIYA FAOLIYATINI
MOLIYALASHTIRISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
Mamatov Baxadir Safaraliyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent shahri – 2025-yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. KORXONALARDA INNOVATSION FAOLIYAT VA UNI MOLIYALASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1-§. Korxonalarda innovatsiya va innovatsiya faoliyatining nazariy asoslari.....	13
1.2-§. Korxonalar innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	23
1.3-§. Korxonalarda innovatsion loyihalarni yaratish va ularni moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	35
I bob bo‘yicha xulosalar.....	45
II BOB. KORXONALARDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	47
2.1-§. Korxonalar innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishga qaratilgan moliyaviy siyosatning joriy holati tahlili.....	47
2.2-§. Korxonalarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari tahlili.....	58
2.3-§. Korxonalarda innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	86
II bob bo‘yicha xulosalar.....	100
III BOB. IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	103
3.1-§. Korxonalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.....	103
3.2-§. Korxonalarda innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishning samarali tizimini shakllantirish chora-tadbirlari.....	110
III bob bo‘yicha xulosalar.....	126
XULOSA.....	129
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	133
ILOVALAR.....	139

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda innovatsiyalar – iqtisodiy oʻzgarishlar va rivojlanishning asosiy omili, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni taʼminlovchi kuchdir. Innovatsiyalarni ragʻbatlantirish va innovatsiya faoliyatini jadallashtirish rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy siyosatining asosiy strategik maqsadiga aylangan boʻlib, rivojlanayotgan mamlakatlarda tobora yuqori ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsiya faoliyatining, xususan, ilmiy-tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI), patentlar, venchur va startaplar, texnologik jihatdan murakkab tovarlarni eksport-import qilish, xizmatlar, yangi korxonalarga toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni yoʻnaltirish kabilarning rivojlanishi jahon iqtisodiyotining transformasiyalashuviga olib keldi. Jahon bankining maʼlumotlariga koʻra, “dunyoning barcha mintaqalari innovatsiya faoliyatini rivojlantirish uchun investitsiyalarni koʻpaytirdi. Natijada, innovatsion faoliyat taraqqiyoti uchun global xarajatlar 20 yil ichida 4 barobarga oshdi va deyarli 2,5 trillion AQSh dollarini tashkil qildi yoki global yalpi ichki mahsulotning 2,5 foiziga yetdi”¹. Shu munosabat bilan bugungi kunda korxonalar innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishning samarali tizimini shakllantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Jahon amaliyoti koʻrsatishicha, XXI asr – yuqori texnologiyalarning rivojlanishi va oʻsishi asri boʻlib, taraqqiy etgan mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish, ilm-fan sohasiga investitsiyalarni keng koʻlamda jalb qilish, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish boʻyicha maqsadli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, innovatsion faoliyatga sarflangan davlat va xususiy sektor xarajatlarini optimallashtirish, ushbu jarayonda ishtirok etuvchi institutlar faoliyatini takomillashtirish, sohaga xususiy sektor mablagʻlarini jalb qilishda ragʻbatlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va innovatsion faollikni oshirish, innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishning samarali tizimini shakllantirishga yoʻnaltirilgan ilmiy tadqiqotlarga asosiy eʼtibor

¹ Глобальные лидеры в области инноваций в 2023 году. wipo-pub-2000-2023-exec-ru-global-innovation-index-2023.pdf.; Volume9_REC-2023.pdf (isec.am).

qaratilmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va biznes hamda investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha jadal islohotlar olib borilmoqda. 2019-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan qishloq xo‘jaligi, energetika, qurilish, ta‘lim, sog‘liqni saqlashda innovatsion va texnologik rivojlanishni ta‘minlash va rag‘batlantirish borasida katta yutuqlarga erishildi. O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2022-2026-yillarda amalga oshirishda innovatsion infratuzilma subyektlari tarmog‘ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni tashkil etish, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning institusional mexanizmlarini takomillashtirish, kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jadal rivojlantirishni ta‘minlash, yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalarni yaratishning g‘oyadan yakuniy iste‘molchigacha bo‘lgan kompleks tizimini ta‘minlash orqali innovatsiyalarga bo‘lgan talabni rag‘batlantirish, yaratilgan kapitalni “tubdan yangilovchi” innovatsiyalarga qayta yo‘naltirish tizimini shakllantirish kabi chora-tadbirlar belgilandi. “2026-yilga kelib, innovatsion tadbirkorlik natijasida yaratiladigan yangi ish o‘rinlari sonini 4 baravarga oshirish, ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish, hududlarda yaratiladigan yangi texnologiyalar sonini 384 tagacha oshirish, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ilmiy, innovatsion va texnologik loyihalar sonini 183 tagacha oshirish”² singari ustuvor vazifalar korxonalarning investisiya faoliyatini moliyalashtirishning samarali tizimini shakllantirish, bu borada tegishli ilmiy tadqiqotlar olib borish va ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.